



O'zbek
xalq ertakları

BAHROM GILAMBOZ





BAHROM GILAMDO.




UO'K 398.21(=512.133)KBK
2(50')
X 22

Ertaklar xalq og‘zaki ijodining eng boy va rang-barang janrlaridan biridir. Ular sodda va tushunarli bo‘lgani uchun har qanday kitobxon ongiga tez yetib boradi. Ertaklarda xalqning kelajakka bo‘lgan ishonchi, adolatning adolatsizlik ustidan g‘alabasi, yorug‘likning zulmatni yengishi, ozod va baxtiyor hayotga erishish g‘oyalari yorqin obrazlar orqali tasvirlanadi. Yaramas odatlar, noma’qul illatlar tanqid ostiga olinadi, mardlik, epchillik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, halollik, vafodorlik, saxiylik kabi g‘oyalar ulug‘lanadi.

Kichkintoylar o‘zлari tinglagan yoki o‘qigan ertaklari yordamida atrof olam bilan tanishib, nima yaxshi-yu nima yomonligini bilib o‘saveradilar.

O‘ylaymizki, bu kitobcha ham bolajonlarimizning doimiy hamrohiga ayylanadi, ularni ezgulik sari yetaklashga xizmat qiladi.



BAHROM GILAMDO'Z


Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda bir podsho bo‘lgan ekan. Uning Bahrom degan bitta-yu bitta o‘g‘li bor ekan. Bahrom aqlli, hushyor bola ekan. U yoshlidan hunar o‘rganishga qiziqib, temirchilik, duradgorlik, tikuvchilik, sartaroshlik kabi oltmishto‘qqiz hunarni o‘rganibdi.



Gilam to‘qishda Sherzod ismli ustozidan ham o‘tib ketibdi. Bahrom shunday gilam to‘qir ekanki, bir katta podshoning xazinasini, boj-xirojini jamlasa ham Bahrom to‘qigan gilamning narxiga yetmas ekan. U tovlanishda tovusni tang qoldirar, quyoshning rashkini keltirar ekan. Podsho esa o‘g‘lining hunarini nazarga ilmas, uni davlat ishini o‘rganishga undar ekan. Lekin Bahrom otasining so‘ziga quloq solmas, saroy ishiga qiziqmas ekan. Podsho o‘g‘lining bu ishidan qattiq xafa bo‘lib yurgan kunlarning birida o‘g‘li dan yana „yo‘q“ degan javobni eshitib, g‘azablanibdi va „Mening senday o‘g‘lim yo‘q! Shahardan chiqib ket, bo‘lmasa kallangni olaman!“ debdi. Bahrom otasining niyatini oldindan bilib, safar an-









jomlarini tayyorlab qo'ygan ekan. Bu gapni eshitgan zamon onasi va yor-do'stlari bilan xayrlashib, shahardan chiqib ketibdi. Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi, necha-necha cho'l-u biyobonlarni bosib o'tibdi. Qush otib ovqat qilibdi, yer qazib suv ichibdi. Kunlardan bir kuni oy yorug'ida katta dovondan oshib bir soylikka tushibdi-yu hayron qolibdi: osmonda ikkita oy paydo bo'lib qolibdi. Bahrom kunbotar tomondagi oyga qarab yuraveribdi. Kunduzi yotib dam olibdi, kechqurun oy chiqqanda yo'lga tushibdi. Yettinchi kuni kechasi kunbotar tomondagi oy osmonda emas, osmonga tutashgan baland minora tepasida ko'rinishibdi. Minora Chindil degan shaharning o'rtasida ekan. Bahrom bozorda aylanib yurib, bir hasamatli do'konning oldida to'xtabdi. Bu do'kon kabobpazning do'konini ekan. Do'kon oldida odam ko'p emish. Ichkarida kabobpaz yigit: „Ha, kep qoling. Pishdi kabob! Yeganlar darmonda, yemaganlar armonda!“ deb xo'randalarni qiziqtirib, kabob pishirib turgan emish.

Bahrom: „Bu hunarni ham o‘rganish kerak ekan“, deb ko‘nglidan o‘tkazibdi va kabobpazning ishidan ko‘z uzmay qarab turaveribdi. Bir vaqt do‘konning oldi bo‘sab kabobpazning Bahromga ko‘zi tushibdi:

– Xo‘sish, yigit, muncha tikilib qolding. Kabobpazlikni o‘rganasanmi? – deb so‘rabdi. Bahrom quvonib ketib:









- Albatta, menga ham kabob pishirishni o‘rgating, – debdi.
- Bilasanmi men kimman? – debdi kabobpaz.
- Yo‘q, bilmayman, – debdi Bahrom.
- Men oddiy kabobpaz emasman, Chindil podshosining o‘g‘li Korson bo‘laman, – debdi kabobpaz. Bahrom shahzodaning kabob pishirishini ko‘rib hayron bo‘libdi va undan kabobpazlikni o‘rgatishni yana iltimos qilibdi. Kabobpaz Bahromni shogird qilib olmoqchi bo‘lib, uni orqadagi qorong‘i bir uyga boshlab kiribdi. Uydan allanechuk sassiq hid buruqsib turar ekan. U bu hidga chiday

olmay, ortiga qaytmoqchi bo‘lgan ekan, kabobpaz unamabdi. Qara-sa, uyning to‘rt burchagida qo‘llariga oybolta ushlagan to‘rt jallod baravariga: „Qon, qon!.. Uf... cho‘lladik, qon!“ deb turgan emish. Bahromni qo‘rquv bosibdi. Kabobpaz uni yetaklab kelib, yana bir eshikni ochibdi. Ichkarida bir qancha odam birining og‘zidan





biri ilib: „Men semiz emas, bu semiz... Men semiz emas, u semiz“, der emish. Bahrom ularni ko‘rib esankirab turgan vaqt kabobpaz uni ichkariga itarib yuboribdi va eshikni tashqaridan qulflab qo‘yibdi. Kabobpaz bu yerdagi semiz odamlardan har kuni ikkitasini tanlab olib jallodlar qo‘liga tashlar, ularning go‘shtidan esa kabob pishirar ekan. Shuning uchun eshik „tiq“ etdi deguncha bechoralar jon talvasasiga tushar ekanlar. Oradan bir necha kun o‘tibdi. Kabobpaz kuniga ikkitadan odam olib chiqaveribdi. Navbat Bahromga yetibdi. Bahrom o‘lishini bilib, kabobpazning oyog‘iga bosh qo‘yib zorlanibdi:



– Bir arzim bor, birodar, ne-ne orzu bilan yetmish xil hunar o‘rgandim. Menga kerakli narsalarni keltirib ber, senga bir gilam to‘qib beray, uni sotsang, puli butun umringga yetadi. Shu gilamni to‘qib bo‘lganimdan so‘ng meni o‘ldirsang ham roziman, – debdi. Kabobpaz o‘ylab turib rozi bo‘libdi va shu kuniyoq Bahromning aytgan hamma narsasini keltirib, gilamni tayyor qilishga qirq kun muhlat beribdi. Bahrom gilamni o‘ttiz sakkiz kun deganda tayyor qilibdi. Kabobpaz gilamni ko‘rib hayron qolibdi. Shu kuni Bahrom-








Abdulla Qodiriy nomidagi
viloyat AKM
INV № 013/21-69

ni kabob qilmoqchi ekan, sevinganidan yana ikki kun uni asraydig'an bo'libdi. U erta saharda gilamni do'kon oldiga osibdi. Shahar xalqi bunday gilamni hech qayerda ko'rmagan ekan. Shahardagi butun xalq kabobpazning do'koni oldiga yig'ilibdi. Gilam savdoga qo'yilibdi. Birov o'n ming tilla desa, birov yuz ming tilla der emish. Gilamning narxi borgan sari ko'tarilaveribdi. Shahardagi „manaman“ degan savdogarlar, amaldorlar ham gilamni sotib olishga puli yetmay qolibdi. Xullas, hech kim gilamning narxiga yetolmabdi. Kabobpaz bo'lsa: „Mening hunarimga qoyil qoling“, degandek gerdayib, savdoni ham xalqning o'ziga qo'yib, qarab turaveribdi.

Endi gapni Bahromning onasidan eshiting. Bahromning onasi o'g'lining dardida yig'layverib ikkala ko'zidan ajralibdi. Lekin eriga hech nima demas ekan. Podsho xotinini judayam sevar ekan. Bahrom saroydan chiqib ketgach, podsho qo'l ostidagi hamma shaharlarga jarchi qo'yibdi. Bahromdan aslo darak bo'lmaabdi. Podsho vahimaga tushibdi. So'ngra boshqa podsholarga ham elchilar yuborib, Bahromni qidirtiribdi. Axiri shu Chindil shahriga ham Bahromni





qidirib uch elchi kelibdi. Elchilarning boshlig‘i Bahromning ustozи Sherzod pahlavon ekan. Elchilar yurt podshosidan Bahromni so‘rab turganlarida eshik ochilib, bir kishi ichkariga kirib kelibdi. U podshoga ta’zim qilib xushmuomalalik bilan gapira boshlabdi. Bu odam Chindil shahrining katta boylaridan ekan.

– Hurmatli shohim! Sizni buyuk bir martaba bilan tabrikla-moqchi bo‘lib keldim. Bir qoshiq qonimdan kechsangiz, gapirsam, – debdi u podshoga:

– Kechdim, gapir! – debdi podsho. Shunda u qulluq qilib so‘z boshlabdi:

– Shu bugun erta bilan farzandingiz do‘konlari oldida bir gilam paydo bo‘lib qoldi. Hammamiz yoqa ushlab: „Ofarin“, dedik. Bu naqa gilamni shu vaqtgacha ko‘rmagan edik. Qo‘l ostingizdagи „manaman“ deganlar ham, qo‘li qisqalik qilib, gilamning bahosiga yetolmadi. Gilam shundayin bebaho ekan. Podshohi olam, sizning soyayi davlatingizda kabobpaz o‘g‘lingizdan hunarmandroq kishi bo‘lmас. Kamina qulingiz bu ishni ham o‘g‘lingiz Korsonning ishi deb o‘ylab, sizni muborakbod qilgani kelgan edim.

Podsho boyning gapidan quvonib, unga to'n kiygizibdi. Boy chiqib ketgandan keyin podsho o'g'li Korsonning hunarini tomosha qilmoqchi bo'libdi. Elchilar, ayniqsa, Sherzod buni kutib turgan ekan. Podsho dabdaba bilan bozorga boribdi. Elchilar ham u bilan birga borishibdi. Hamma egilib, ta'zim qilibdi. Podsho o'g'lining peshanasidan o'pibdi. Sherzod gilamni ko'rishi bilan behad sevinibdi. Chunki gilamda Bahromning tug'ilganidan tortib to Korson kabobpazning zindonida yotganigacha bo'lgan sarguzashti gul bilan yozilgan ekan. Sherzod chidayolmay, bir oh tortibdi va qilichini sug'urib, qalqonni tutib do'konga kiribdi. Uning ketidan qolgan ikki elchi ham kiribdi. Sherzod gilamda ko'rsatilgan yo'l bilan ketaveribdi. U jallodga duch kelib, to'rttasini ham qili-chdan o'tkazibdi. „Men semiz emas, u semiz!“ deb bir-birlarini ko'rsatib turgan odamlar oldiga kirib Bahromni topibdi. Bahrom ozib ketgan ekan. U Sherzodni ko'rishi bilan o'midan turib, quchoqlashib ko'rishibdi. So'ngra Korsonning hamma asirlarini ham zindondon ozod qilishibdi. Tashqarida Chindil podshosi butun askarlarini to'plab, urushga hozirlanib turgan ekan. Bahrom tashqariga chiqib, Korsonning kallasini uzibdi. To'rt pahlavon baravariga kurash maydoniga otlanibdi. Kabobpazning do'koni oldida qirq



kecha-yu qirq kunduz urush bo‘libdi. Bahrom bilan Sherzodga podsho qo‘smini bas kelolmabdi. Chindil podshosining butun lashkari va pahlavonlari qirilibdi. Oxiri podsho taslim bo‘libdi. Sherzodning ham ikki sherigi o‘libdi. Shu tobda Bahrom shahar minorasida ko‘ringan oyni eslabdi va Sherzoddan ruxsat olib, o‘sha minoraga borib tepasiga chiqibdi. U yerda podshoning qizi qirq kanizning o‘rtasida to‘lin oy kabi nur sochib o‘tirar ekan. Bahrom uni ko‘rib, podshoning qizi ekanligiga ishonibdi. Malika Bahromni ko‘rib o‘rnidan turibdi.

— Marhamat, aziz pahlavonim Bahrom, — debdi qiz.

Bahrom:

— Salom, ey sohibjamol qiz, — debdi va u bilan tanishibdi.

Shunday qilib, Sherzod zolim podshoni zindonga solibdi. Bahrom esa go‘zal malikani olib, o‘z yurtiga borib, murod-maqsadlariga yetibdi.



82(5O')
X 22

Bahrom gilamdo'z / [Matn]: ertak. – Toshkent:
„Enziklopediya“ nashriyoti MChJ, 2022 y. – 24 bet.

ISBN 978-9943-07-759-1

UO'K 398.21(=512.133)
KBK 82(5O')

RASSOM:
SHOHRUX TOSHTURDIYEV

O'zbek xalq ertaklari

„Enziklopediya“ nashriyoti
Toshkent – 2022

Muharrir Sunnat Xo'jaahmedov
Badiiy muharrir Shohrux Toshturdiyev
Kompyuterda sahifalovchi Shahnoza Sobirova

Bosishga ruxsat etildi 25.10.2022. Bichimi 84×108^{1/16}.
„Times New Roman“ garniturasi. 16 kegl.
Hisob-nashriyot tabog'i 1,05.
Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 831-22.

„Credo Print“ MChJ kitob fabrikasida chop etildi.
Toshkent shahar, Bog'ishamol ko'chasi. 160.



ENSIKLOPEDIYA
NASHRIYOTI



Toshkent shahar, Chilonzor tumani,
Muqimiy ko'chasi, 178-uy.



Enziklopediya_nashriyoti_MU2021



Enziklopediya_nashriyoti

ISBN 978-9943-07-759-1



9 789943 077591